



O'ZBEKISTON SHAROITIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHDA NOMARKAZLASHTIRISHNING ROLI

PhD Mustafayev Baxtiyor

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
ORCID: 0009-0006-0760-0852
b.mustafaev@yandex.ru*

Annotatsiya. Maqolada nomarkazlashtirish va strategik rejalashtirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Nazariy yondashuvlar hamda Jahon banki, IHTT va BMTTD tavsiyalari asosida nomarkazlashtirishning hududiy rivojlanish va qarorlar samaradorligiga ta'siri yoritiladi. O'zbekiston tajribasi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi kontekstida baholanib, mahalliy budjetlar va hududiy tashabbuslarning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissi ko'rsatiladi. Hududlar o'rtasidagi institutsional tafovutlar mavjud muammo sifatida qayd etilib, strategik rejalashtirishni takomillashtirish bo'yicha xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: nomarkazlashtirish, strategik rejalashtirish, hududiy rivojlanish, mahalliy budjet, institutsional salohiyat, O'zbekiston–2030.

РОЛЬ ДЕЦЕНТРАЛИЗАЦИИ В СТРАТЕГИЧЕСКОМ ПЛАНИРОВАНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

PhD Мустафаев Бахтиёр

*Институт стратегических и межрегиональных исследований
при Президенте Республики Узбекистан,
Ташкентский университет прикладных наук,
Университета мировой экономики и дипломатии*

Аннотация. В статье рассматривается взаимосвязь децентрализации и стратегического планирования. На основе теоретических подходов и рекомендаций Всемирного банка, ИHTT и BMTTD анализируется влияние передачи полномочий на региональное развитие и эффективность управленческих решений. Опыт Узбекистана оценивается в контексте стратегии «Узбекистан - 2030», с акцентом на рост роли местных бюджетов и региональных инициатив. Выявляются ключевые институциональные ограничения и формулируются обобщённые выводы.

Ключевые слова: децентрализация, стратегическое планирование, региональное развитие, местные бюджеты, институциональный потенциал, «Узбекистан - 2030».

THE ROLE OF DECENTRALIZATION IN STRATEGIC PLANNING IN UZBEKISTAN

PhD Mustafayev Bakhtiyor

*Institute for Strategic and Regional Studies
under the President of the Republic of Uzbekistan,
Tashkent University of Applied Sciences,
University of World Economy and Diplomacy*

Abstract. *The article explores the relationship between decentralization and strategic planning. Using theoretical frameworks and policy insights from the World Bank, IHTT, and BMTTD, it examines how decentralization affects regional development and policy effectiveness. Uzbekistan's experience is assessed in the context of the "Uzbekistan-2030" strategy, with emphasis on the growing role of local budgets and regional initiatives. Key institutional challenges are identified and summarized conclusions are provided.*

Keywords: *decentralization, strategic planning, regional development, local budgets, institutional capacity, Uzbekistan-2030.*

Kirish.

XXI asrda davlat boshqaruvi tizimlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri — iqtisodiy o'sishni hududlar kesimida barqaror ta'minlash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va davlat siyosatining samaradorligini oshirishdan iborat. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish sur'atlaridagi farqlar tobora mamlakatlar o'rtasida emas, balki bir mamlakat ichidagi hududlar o'rtasida shakllanmoqda. Jahon banki hisobotlariga ko'ra, ayrim davlatlarda hududiy tengsizlik milliy o'sish sur'atlarini 1-1,5 foiz punktga pasaytirmoqda.

Shu bois hududiy siyosat va uning institutsional mexanizmlari davlat boshqaruvining markaziy masalasiga aylanmoqda. Globallashuv va kuchayib borayotgan xalqaro raqobat sharoitida markazlashgan boshqaruv modellari barcha hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va demografik ehtiyojlariga bir xil darajada javob bermasligi aniq bo'lib bormoqda. Markaziy darajada qabul qilinayotgan strategik qarorlar ko'p hollarda umumlashtirilgan yondashuvlarga tayanadi va hududlarning resurs salohiyati, mehnat bozori holati hamda infratuzilmaviy farqlarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Natijada strategik dasturlarning ijrosi formal tus olishi, resurslar samarasiz taqsimlanishi va kutilgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga erishilmasligi kuzatiladi.

Shu bois nomarkazlashtirish – vakolatlar, moliyaviy resurslar va javobgarlikni mahalliy darajaga o'tkazish jarayoni – strategik rejalashtirishning muhim institutsional omili sifatida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda (Oates, 1972). BMTTD tahlillariga ko'ra, mahalliy darajada shakllangan siyosat qarorlari aholi ehtiyojlariga markaziy qarorlarga nisbatan o'rtacha 20-30 foizga yaqinroq mos keladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida strategik rejalashtirish davlat boshqaruvining markaziy elementiga aylandi. Bu jarayonda nomarkazlashtirish faqat ma'muriy islohot emas, balki hududlarning ichki salohiyatini to'liq ishga solish, qaror qabul qilishni joylarga yaqinlashtirish va natija uchun javobgarlikni oshirishga qaratilgan uzoq muddatli siyosat sifatida qaralmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – nomarkazlashtirish va strategik rejalashtirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, xorijiy ilmiy yondashuvlarni ko'rib chiqish, O'zbekiston tajribasini normativ-huquqiy asoslar va «O'zbekiston - 2030» strategiyasi kontekstida baholash hamda ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Nomarkazlashtirish davlat boshqaruvi va strategik rejalashtirish nazariyasida eng ko'p o'rganilgan institutsional islohotlardan biri hisoblanadi. Ushbu masala ilk bor fiskal federalizm

nazariyasi doirasida tizimli ravishda asoslab berilgan. Outsning (1972) fiskal federalizm konsepsiyasiga ko'ra, davlat xizmatlarini aholiga yaqin darajada tashkil etish axborot asimmetriyasini kamaytiradi va resurslar taqsimotining samaradorligini oshiradi. Outs nomarkazlashtirishni strategik rejalashtirishning axborot ustunligiga tayangan institutsional shakli sifatida baholaydi. Keyingi empirik tadqiqotlar ham mazkur yondashuvni tasdiqlab, nomarkazlashtirish yuqori bo'lgan mamlakatlarda jamoat xizmatlari samaradorligi yuqoriroq ekanini ko'rsatadi.

Rodrigues-Poze (2018) nomarkazlashtirishni hududiy iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi muhim omil sifatida ko'radi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, mahalliy hokimiyatlarga strategik vakolatlar berilganda, hududlar o'z raqobat ustunliklariga tayangan rivojlanish modellari ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, u institutsional sifat past bo'lgan mamlakatlarda nomarkazlashtirish hududlar o'rtasidagi nomutanosiblikni kuchaytirishi mumkinligini ta'kidlaydi, bu esa markaziy muvofiqlashtirish mexanizmlarining ahamiyatini oshiradi.

Bardaxon va Mukerji (2006) nomarkazlashtirishni siyosiy iqtisod nuqtayi nazaridan tahlil qilib, uni mahalliy hisobdorlik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish mexanizmi sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, strategik rejalashtirish mahalliy darajada amalga oshirilganda korrupsiya xavfi pasayadi va davlat xarajatlarining ijtimoiy qaytimi ortadi. Bu yondashuv keyingi yillarda IHTT (2019) va Jahon banki (2019) tadqiqotlarida ham qo'llab-quvvatlangan.

Stiglits (2015) nomarkazlashtirishni davlat boshqaruvini demokratlashtirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash vositasi sifatida talqin qiladi. U markazlashgan strategik rejalashtirish ko'p hollarda standartlashgan qarorlarga olib kelishini, bu esa hududlar o'rtasidagi farqlarni inobatga olmasligini ta'kidlaydi.

1-jadval

Nomarkazlashtirish va strategik rejalashtirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik (nazariy yondashuvlar asosida)

Nazariy yondashuv / muallif	Nomarkazlashtirishning asosiy mazmuni	Strategik rejalashtirishga ta'siri
Fiskal federalizm (Oates)	Davlat xizmatlarini aholiga yaqin darajada tashkil etish	Axborot asimmetriyasi kamayadi, resurslar samarali taqsimlanadi
Hududiy rivojlanish nazariyasi (Rodriguez-Pose)	Mahalliy vakolatlar orqali raqobat ustunliklarini ishga solish	Hududlarga mos strategik maqsadlar shakllanadi
Siyosiy iqtisod yondashuvi (Bardhan, Mookherjee)	Mahalliy hisobdorlik va jamoatchilik nazorati	Korrupsiya xavfi pasayadi, davlat xarajatlari samaradorligi oshadi
Davlat sektori iqtisodiyoti (Stiglitz)	Demokratlashuv va ijtimoiy adolatni ta'minlash	Strategik qarorlar standartlashuvdan chiqib, hududiy farqlar hisobga olinadi
Xalqaro institutlar yondashuvi (Jahon banki, IHTT, BMTTD)	Institutsional va kadrlar salohiyati bilan qo'llab-quvvatlangan nomarkazlashtirish	Natijaga yo'naltirilgan strategik rejalashtirish ta'minlanadi

Manba: o'rganishlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Jahon banki, IHTT va BMTT (2022) hisobotlarida nomarkazlashtirish strategik rejalashtirishni natijaga yo'naltirishda muhim shart ekani, biroq bu jarayon institutsional salohiyat, kadrlar tayyorgarligi va ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimlari bilan qo'llab-quvvatlanmasa, kutilgan samaraga erishib bo'lmasligi qayd etiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Strategik rejalashtirish davlat siyosatini uzoq muddatli maqsadlar, ustuvor yo'nalishlar va resurslar taqsimoti orqali amalga oshirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Biroq strategik rejalashtirishning amaliy samaradorligi ko'p jihatdan qaror qabul qilish darajasiga bog'liq bo'ladi. Aynan shu nuqtada nomarkazlashtirish strategik rejalashtirishning institutsional asosi sifatida namoyon bo'ladi.

Markazlashgan boshqaruv sharoitida strategik rejalar, odatda, umummilliy maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lib, hududlarning iqtisodiy tuzilishi, demografik xususiyatlari, mehnat bozori holati va resurs salohiyatini yetarli darajada inobatga olmaydi. Xalqaro tajribaga ko'ra, bunday yondashuv strategik dasturlar ijrosida samaradorlikning 20-25 foizgacha pasayishiga olib kelishi mumkin (WB, 2019).

Nomarkazlashtirish sharoitida esa strategik rejalashtirish «pastdan yuqoriga» yondashuv asosida amalga oshiriladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari hududiy iqtisodiyot, aholi ehtiyojlari va mavjud resurslar haqida to'liqroq ma'lumotga ega bo'lgani sababli, strategik maqsadlar real sharoitga mos ravishda shakllantiriladi.

Bu strategik rejalashtirishni formal dasturiy hujjat emas, balki amaliy iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish instrumentiga aylantiradi.

Nomarkazlashtirish strategik rejalashtirishda javobgarlik mexanizmini ham kuchaytiradi. Qarorlar mahalliy darajada qabul qilinganda, ularning natijalari uchun javobgarlik aniq subyektlarga biriktiriladi. Bu holat ilmiy adabiyotlarda "natija uchun hisobdorlik" (accountability for outcomes) mexanizmi sifatida talqin qilinadi (Bardhan va Mookherjee, 2006).

Biroq nomarkazlashtirish va strategik rejalashtirish o'rtasidagi bog'liqlik avtomatik ravishda ijobiy natija bermaydi. Agar milliy darajada aniq strategik ustuvorliklar, yagona indikatorlar va muvofiqlashtirish mexanizmlari mavjud bo'lmasa, hududiy strategiyalar o'rtasida parchalanish xavfi yuzaga keladi (Treisman, 2007). Shu sababli ilmiy tadqiqotlarda eng maqbul yondashuv sifatida «markaziy strategik maqsadlar – mahalliy ijro» modeli taklif etiladi (UNDP, 2022).

O'zbekistonda nomarkazlashtirish va strategik rejalashtirish jarayonlari so'nggi yillarda aniq institutsional, moliyaviy va tashkiliy natijalar bilan namoyon bo'lmoqda (Taraqqiyot strategiyasi, 2023). 2017 yildan keyin qabul qilingan islohotlar mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish va hududiy rivojlanishni strategik rejalashtirish asosida boshqarishga qaratildi. Bu jarayon «Harakatlar strategiyasi» (2017-2021 yy.) orqali boshlab, keyinchalik «O'zbekiston – 2030» taraqqiyot strategiyasi doirasida tizimli ravishda davom ettirildi.

Faktlar shuni ko'rsatadiki, nomarkazlashtirishning muhim ko'rsatkichlaridan biri – mahalliy byudjetlar rolining oshishidir. Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2018–2024 yillar davomida mahalliy byudjetlar xarajatlarining konsolidatsiyalashgan byudjetdagi ulushi taxminan 36-38 foizdan 42-45 foizgacha o'sgan, shu davrda mahalliy byudjetlar xarajatlarining nominal hajmi qariyb 2,4 barobarga oshgan. Ayrim soliq tushumlarining joylarda qoldirilishi mahalliy hokimiyatlarga strategik ustuvor yo'nalishlarni mustaqil belgilash imkonini berdi (Smoke, 2015).

Nomarkazlashtirishning ikkinchi muhim natijasi – hududiy investitsiya faolligining oshishidir. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2023-2024 yillarda umumiy kapital qo'yilmalarning 55 foizdan ortig'i hududiy tashabbuslar asosida shakllangan loyihalar hissasiga to'g'ri keldi, bu 2016 yilga nisbatan deyarli ikki baravar yuqori ko'rsatkichdir.

Farg'ona viloyati misolida nomarkazlashtirish asosida ishlab chiqilgan hududiy strategiya sanoat va kichik biznesni rivojlantirishga qaratildi. Natijada 2022-2024 yillarda sanoat mahsuloti hajmi real hisobda qariyb 1,3 barobar oshdi.

Qashqadaryo viloyatida nomarkazlashtirish qishloq xo'jaligi va agrosanoat sohasida strategik rejalashtirishni chuqurlashtirishga xizmat qildi. 2021-2024 yillarda 100 dan ortiq

agrosanoat loyihalari amalga oshirilib, qishloq joylarda 60 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Ushbu natijalar «O'zbekiston - 2030» strategiyasida belgilangan aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqni qisqartirish maqsadiga to'liq uyg'un keladi.

2-jadval

O'zbekistonda nomarkazlashtirish va strategik rejalashtirishning asosiy natijalari (2018–2024 yy.)

Ko'rsatkich	2018 yil	2023–2024 yillar	O'zgarish dinamikasi
Mahalliy byudjetlar ulushi (konsolidatsiyalashgan byudjetda)	36–38 %	42–45 %	+6–7 foiz punkt
Mahalliy byudjetlar xarajatlari (nominal)	1,0	2,4	2,4 barobar o'sish
Hududiy tashabbuslar asosidagi investitsiya loyihalari ulushi	<30 %	>55 %	Deyarli 2 barobar
Sanoat va agrosanoat loyihalari soni	Cheklangan	Kengaygan	Barqaror o'sish
Yangi ish o'rinlari (ayrim hududlar misolida)	Past	60 mingdan ortiq	Yuqori ijtimoiy ta'sir

Izoh: ma'lumotlar Moliya vazirligi, rasmiy statistika va maqolada keltirilgan tahlillar asosida shakllantirilgan.

Manba: o'rganishlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

O'zbekiston tajribasi nomarkazlashtirish strategik rejalashtirish samaradorligini oshirayotganini amalda tasdiqlamoqda. Mahalliy byudjetlar ulushining ortishi, hududiy investitsiya loyihalarining ko'payishi va iqtisodiy o'sishning hududlar kesimida diversifikatsiyalanishi strategik rejalashtirish qarorlari joylarda qabul qilinayotganining bevosita natijasidir. Bu holat nomarkazlashtirish strategik rejalashtirishni aniq iqtisodiy va moliyaviy natijalar bilan bog'lab qo'yayotganini ko'rsatadi. IHTT va Jahon banki (2019) tahlillariga ko'ra, mahalliy darajada qabul qilingan qarorlar ustuvor yo'nalishlar bilan yaxshiroq uyg'unlashgan holda, davlat xarajatlarning samaradorligini o'rtacha 15–20 foizga oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, natijalar tahlili nomarkazlashtirishning ta'siri hududlar bo'yicha bir xil emasligini ko'rsatadi. Iqtisodiy salohiyati yuqori, infratuzilmasi rivojlangan va kadrlar zahirasi yetarli bo'lgan hududlarda strategik rejalashtirish natijalari tez va barqaror namoyon bo'lmoqda. Bunday hududlarda mahalliy boshqaruv organlari investitsiya jalb qilish, tarmoqlarni ixtisoslashtirish va qo'shimcha qiymat yaratishga qaratilgan strategik qarorlarni samarali qabul qila olmoqda. Xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatadiki, institutsional salohiyat yuqori bo'lgan hududlarda nomarkazlashtirish iqtisodiy o'sish sur'atlarini 1-1,5 foiz punktga oshirishga xizmat qiladi (Jahon banki, 2019).

Aksincha, chekka yoki iqtisodiy jihatdan zaif hududlarda nomarkazlashtirish imkoniyatlari to'liq ro'yobga chiqmayapti. Bu hududlarda strategik rejalashtirish ko'p hollarda formal tus olib, resurslar taqsimoti markaziy transfertlarga yuqori darajada bog'liq bo'lib qolmoqda (Treisman, 2007). Ayrim hollarda mahalliy darajada yetarli tahliliy ma'lumotlar va prognozlash imkoniyatlarining yo'qligi qaror qabul qilishni qisqa muddatli va intuitiv yondashuvlarga asoslash xavfini kuchaytirmoqda. BMTTD (2022) tadqiqotlariga ko'ra, bunday institutsional cheklovlar nomarkazlashtirish samarasini 30 foizgacha pasaytirishi mumkin.

Bu holat nomarkazlashtirishni institutsional salohiyatni oshirish siyosati bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, mahalliy boshqaruv organlarida tahliliy va prognozlash salohiyatining yetishmasligi strategik rejalashtirish sifatini pasaytiradi. Raqamli ma'lumotlar bazalarining cheklanganligi esa qaror qabul qilishni empirik tahlilga emas, balki subyektiv baholashlarga asoslash xavfini kuchaytiradi. IHTT hisobotlarida ta'kidlanishicha, hududiy rivojlanish strategiyalarining samaradorligi ko'p jihatdan ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimlarining rivojlanganlik darajasiga bog'liq.

«O'zbekiston – 2030» strategiyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, nomarkazlashtirish va strategik rejalashtirishning uyg'unligi hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni qisqartirishning asosiy instrumenti sifatida qaralishi mumkin (UNDP, 2022). Strategiyada belgilangan inklyuziv iqtisodiy o'sish, barqaror bandlik va aholi farovonligini oshirish maqsadlariga erishishda mahalliy darajada samarali strategik rejalashtirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Biroq bu maqsadga erishish uchun nomarkazlashtirish faqat vakolatlarni o'tkazish bilan cheklanmasligi, balki mahalliy darajada institutsional qo'llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash, moliyaviy mustaqillikni oshirish va natijaga yo'naltirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish bilan to'ldirilishi lozim.

3-jadval

Nomarkazlashtirishni chuqurlashtirishdagi muammolar va strategik takliflar ("O'zbekiston – 2030" kontekstida)

Muammo	Namoyon bo'lishi	Strategik taklif
Institutsional salohiyatning notekisligi	Ayrim hududlarda strategik rejalashtirish formal tus oladi	Mahalliy darajada tahliliy-prognozlash bo'linmalarini institutsionallashtirish
Kadrlar yetishmasligi	Qarorlar intuitiv asosda qabul qilinadi	Mahalliy boshqaruv kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini kuchaytirish
Raqamli ma'lumotlar bazalarining cheklanganligi	Data-driven boshqaruv rivojlanmagan	Yagona hududiy raqamli ma'lumotlar platformalarini joriy etish
Moliyaviy mustaqillikning pastligi	Chekka hududlarda nomarkazlashtirish samarasi past	Tenglashtiruvchi transfertlarni strategik rejalashtirish bilan bog'lash
Muvofiqlashtirish mexanizmlarining zaifligi	Hududiy strategiyalar parchalangan	"Markaziy strategik maqsadlar – mahalliy ijro" modelini mustahkamlash

Manba: o'rganishlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Shunday qilib, natijalar muhokamasi shuni ko'rsatadiki, nomarkazlashtirish O'zbekistonda strategik rejalashtirishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqqan. U hududiy iqtisodiy o'sish, investitsiya faolligi va bandlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Biroq uning to'liq salohiyatini ochish uchun davlat siyosatining keyingi bosqichida institutsional chuqurlashtirish, markaziy va mahalliy darajalar o'rtasida samarali muvofiqlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish hamda strategik rejalashtirishni to'liq natijaga yo'naltirilgan boshqaruv instrumenti sifatida shakllantirish zarur.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, nomarkazlashtirish O'zbekistonda strategik rejalashtirishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Markazlashgan boshqaruv modelidan bosqichma-bosqich voz kechish va mahalliy darajada qaror qabul qilish vakolatlarini kengaytirish hududiy iqtisodiy o'sish, investitsiya faolligi va bandlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Mahalliy byudjetlar ulushining o'sishi, hududiy investitsiya tashabbuslarining ko'payishi hamda iqtisodiy o'sish manbalarining diversifikatsiyalanishi nomarkazlashtirish strategik rejalashtirishni formal hujjat emas, balki amaliy iqtisodiy boshqaruv instrumentiga aylantirayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tahlil natijalari nomarkazlashtirish samarasi hududlar bo'yicha bir xil namoyon bo'lmayotganini ham ko'rsatadi. Institutsional salohiyati, infratuzilmasi va kadrlar zahirasi yuqori bo'lgan hududlarda strategik rejalashtirish natijalari barqaror va uzoq muddatli tus olmoqda. Aksincha, chekka yoki iqtisodiy jihatdan zaif hududlarda tahliliy salohiyatning cheklanganligi, raqamli ma'lumotlar bazalarining yetarli darajada rivojlanmagani va moliyaviy mustaqillikning pastligi nomarkazlashtirish imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda.

«O'zbekiston – 2030» strategiyasi kontekstida nomarkazlashtirish va strategik rejalashtirish uyg'unligi hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni qisqartirishning asosiy institutsional mexanizmi sifatida qaralishi lozim. Biroq bu maqsadga erishish uchun

nomarkazlashtirish faqat vakolatlarni joylarga o'tkazish bilan cheklanmasligi, balki institutsional chuqurlashtirish siyosati bilan to'ldirilishi zarur.

Shu nuqtayi nazardan, quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlarida strategik rejalashtirish bilan shug'ullanuvchi doimiy tahliliy va prognozlash bo'linmalarini institutsionallashtirish lozim. Bu hududiy qarorlarni empirik tahlil va ssenariylarga asoslangan holda qabul qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, nomarkazlashtirish ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven governance) tamoyillari bilan uyg'unlashtirish zarur. Hududiy darajada statistik, moliyaviy va ijtimoiy ma'lumotlarni integratsiya qilgan yagona raqamli platformalar strategik rejalashtirish sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Uchinchidan, markaziy va mahalliy darajalar o'rtasida «markaziy strategik maqsadlar – mahalliy ijro» modelini institutsional jihatdan mustahkamlash talab etiladi. Bu milliy ustuvorliklar saqlangan holda hududiy moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

To'rtinchidan, iqtisodiy salohiyati past hududlar uchun tenglashtiruvchi moliyaviy mexanizmlar va maqsadli transfertlar strategik rejalashtirish bilan bog'langan holda joriy etilishi lozim. Bu nomarkazlashtirish jarayonida hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni kuchayishining oldini oladi.

Xulosa qilib aytganda, nomarkazlashtirish O'zbekistonda strategik rejalashtirishni sifat jihatdan boyitgan va uni real iqtisodiy natijalar bilan bog'lagan institutsional islohot sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq uning to'liq salohiyatini ochish uchun «O'zbekiston - 2030» strategiyasi doirasida nomarkazlashtirishni institutsional, kadrlar va raqamli salohiyatni oshirish siyosati bilan chuqur uyg'unlashtirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

Bardhan, P. and Mookherjee, D. (2006) *Decentralization and Accountability*. Cambridge, MA: MIT Press.

Oates, W. (1972) *Fiscal Federalism*. New York: Harcourt Brace Jovanovich.

OECD (2019) *Making Decentralisation Work*. Paris: OECD Publishing.

Rodriguez-Pose, A. (2018) 'Decentralization and regional development', *Regional Studies*.

Smoke, P. (2015) *Fiscal Decentralization and Development*. Cheltenham: Edward Elgar.

Stiglitz, J. (2015) *Economics of the Public Sector*. New York: W.W. Norton.

Treisman, D. (2007) *The Architecture of Government*. Cambridge: Cambridge University Press.

UNDP (2022) *Multi-level Governance and SDGs*. New York: United Nations Development Programme.

World Bank (2019) *Decentralization and Subnational Governance*. Washington, DC: World Bank.

Тараққиёт стратегияси (2023) "O'zbekiston – 2030" тараққиёт стратегияси. Тошкент.

Ўзбекистон Республикаси Президенти (2017–2024) Президент фармон ва қарорлари. Тошкент.